

## **AHOLIGA TIBBIY XIZMAT KO'RSATISHNING HUDUDIY JIHATLARI**

**Yusupov Xasanboy Baxodir o'g'li**

Toshkent shahar Olmazor tumani 165-sonli umumiy o'rta ta'lim  
maktabi o'quv ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari  
E-mail: [xasanboyyusupov0603@mail.com](mailto:xasanboyyusupov0603@mail.com)

### **ANNOTATSIYA**

*Ushbu maqolada aholiga tibbiy xizmat ko'rsatishning hududiy jihatlari hududlar miqyosida tahlil qilish orqali shifoxona, shifoxona o'rinlari, tibbiyot va o'rta taibbiyot xodimlarining aholi soniga to'g'ri kelish ko'rsatkichlari tahlil qilib o'tilgan.*

***Kalit so'zlar:** Aholi salomatligi, tibbiyot, xizmat ko'rsatish, tibbiy xizmat, o'rta tibbiyot.*

## **TERRITORIAL ASPECTS OF MEDICAL SERVICES TO THE POPULATION**

**Yusupov Xasanboy Bakhodir ugli**

Deputy director for educational affairs of general secondary  
school No. 165 of Almazor district of Tashkent city

### **ABSTRACT**

*This article analyzes the proportion of population of hospitals, hospital beds, medical and secondary medical staff in the regions by analyzing the regional aspects of medical services at the regional level.*

***Keywords:** Public health, medicine, services, medical care, secondary medicine.*

### **KIRISH**

Inson salomatligi jamiyat taraqqiyotining har bir davri uchun kechiktirib bo'lmaydigan muhim masalalardan biri hisoblanadi. Zero, har qanday mamlakatning rivojlanganlik holati mazkur hududda yashovchi aholining salomatlik va savodxonlik darajasi bilan belgilanadi. Aynan shu ikki ko'rsatkich davlatlarning jahon hamjamiyatida tutgan o'rni va inson salohiyatini ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan ifodalaydi. Bugungi kunda respublikamizda aholi salomatligini yaxshilash, jamiyatda sog'lom turmush tarzi va aholi salomatligi, ayniqsa ona va bola salomatligini yaxshilash katta ahamiyatga ega[1 56-b].

### **MUHOKAMA VA NATIJALAR**

Shu bilan birga, ta'kidlash joizki, mamlakatimizda aholi salomatligini yaxshilab borish bo'yicha hozircha to'la-to'kis o'z yechimini topmagan muammolar ham mavjud. Ushbu muammolarning hududiy jihatlarini tahlil qilish, aholining tibbiy jihatidan xizmat ko'rstishning sifatini oshirish shifoxona va ambulator-poliklinikalar o'rinlarini tahlil qilish bilan bog'liq. Respublikamizda bugungi kunda hududlarda shifoxona muassasalari, ambulator-poliklinikalari va tibbiyot hodimlarining aholi jon boshiga to'g'ri kelishi turlicha darajada ekanligini ko'rish mumkin.

### 1-jadval

*Aholiga tibbiy xizmat ko'rsatuvchi shifoxona va ambulator-poliklinikalar  
to'g'risida ma'lumot*

Hududlar	Jami aholi soni	Shifoxonalar soni	Shifoxona o'rinlar soni	Bir shifoxonaga to'g'ri kelgan aholi soni	Bir shifoxona o'rniga to'g'ri kelgan aholi soni	Ambulator poliklinikalar soni	Bir ambulator poliklinikani ka to'g'ri keluvchi o'rtacha aholi soni.
O'zbekiston Respublikasi	34558900	1232	160000	28051,1	216,0	6031	5730,2
Qoraqalpog'iston Respublikasi	1923700	51	7500	37719,6	256,5	342	5624,9
Andijon viloyati	3188100	154	15700	20701,9	203,1	489	6519,6
Buxoro viloyati	1947100	89	7600	21877,5	256,2	531	3666,9
Jizzax viloyati	1410050	54	5300	26112,0	266,0	184	7665,8
Qashqadaryo viloyati	3335400	88	10100	37902,3	330,2	504	6617,9
Navoiy viloyati	1013600	37	4300	27394,6	235,7	305	3323,3
Namangan viloyati	2867500	108	12200	26550,9	235,0	316	9074,4
Samarqand viloyati	3947700	109	14800	36217,4	266,7	507	7786,4
Surxondaryo viloyati	2680800	62	8700	43238,7	308,1	278	9643,2
Sirdaryo viloyati	860900	42	4000	20497,6	215,2	157	5483,4
Toshkent viloyati	2975900	93	15100	31998,9	197,1	535	5562,4
Farg'ona viloyati	3820000	126	19900	30317,5	192,0	517	7388,8
Xorazm viloyati	1893300	56	7200	33808,9	263,0	365	5187,1


Toshkent shahri	2694400	147	25500	18329,3	105,7	921	2925,5
-----------------	---------	-----	-------	---------	-------	-----	--------

O‘zbekistonda aholiga hizmat ko‘rsatishning hududiy jihatlari sifatida aholi jon boshiga to‘g‘ri keluvchi shifoxona o‘rinlari ham muhim ahamiyatga ega. O‘zbekiston Respublikasida 2021-yil holatiga 1232 ta shifoxonalar mavjud bo‘lib(1-jadval) bir shifoxonaga 160 ming aholi to‘g‘ri kelmoqda. Bu ko‘rsatkich respublika viloyatlarida turli ko‘rsatkichga ega. Hududlarda shifoxonalarga to‘g‘ri keluvchi aholi eng yuqori ko‘rsatkich Toshkent shahari bir o‘ringa 25500 kishi, Farg‘ona viloyati 19900 kishi, Andijon viloyati 15700 kishi bilan ushbu hududlarga to‘g‘ri keladi. Sirdaryo viloyati 4000, Navoiy viloyati 4300, Jizzax viloyati 5300 kishi ko‘rsatkichi bilan aholining shifoxonaga to‘g‘ri kelish darajasi bilan eng past ko‘rsatkich bilan ifodalanmoqda. Aholi zich joylashgan hududlarda aholini tibbiy muassasalari bilan taminlanganlik darajasini ko‘payib ketishi aholi salomatligini yaxshilashda salbiy tasiri seziladi [2 69-b].

Shifoxona o‘rinlari son jihatidan (1-jadval) respublika ko‘rsatkichi 28 mingdan ortiq bo‘lib bu ko‘rsatkich ham hududlarda turlicha. Aholi soni zich bo‘lgan viloyatlarda aholi sonini Shifoxonalarga to‘g‘ri kelish ko‘rsatkicha aholi o‘rtasida muammolarni keltirib chiqaradi. Viloyatlar darajasida tahlil qilinganda Surxandaryo viloyatida bir shifoxonaga 44 mingdan ortiq aholi to‘g‘ri keladi bu holat viloyat aholisini shifoxonalarga ehtiyoji yuqoriligini ko‘rish mumkin.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi va Qashqadaryo viloyatlarida aholini shifoxonalarga to‘g‘ri kelish ko‘rsatiki respublikada ancha yuqori ekanligini ko‘rsatadi. Aholining bir shifoxona o‘rinlariga to‘g‘ri kelish jihatini ko‘rib chiqilganida Eng yaxshi ko‘rsatkich Toshkent shahariga to‘g‘ri kelib, bir shifoxona o‘rniga 105 nafar aholi to‘g‘ri kelmoqda. Toshkent shaharida bunday holat bo‘lishining asosiy sabablari shifoxonalar sonining ko‘pligi deb ko‘rish mumkin [3 79-b].

### Aholi salomatligi bilan bog'liq ayrim ko'rsatkichlar xaritasi



Manba: Rasm muallif tomonidan statistik ma'lumotlar asosida tayyorlangan.

Viloyatlar asosida tahlili shuni ko'rsatadiki Qashqadaryo viloyati 330.2 kishi, Surxandaryo viloyati 308.1 kishidan, Samarqand viloyatida 266.7 kishi bir shifoxona o'rniga to'g'ri kelmoqda. Boshqa hududlarga qaraganda ushbu viloyatlarda aholini tibbiy muassasalari o'rinlari bilan taminlanganlik darajasi bo'yicha ehtiyoj yuqori ekanligini ko'rish mumkin. Toshkent shahari 105.7 kishi, Farg'ona viloyati 192 kishi, Toshkent viloyati 197.1(1-rasm) kishi bilan hududlarga qaraganda aholiga tibbiy xizmat ko'rsatish ancha yahshi ekanligini ko'rish mumkin[5].

Aholining shifoxona mauassaslari bilan taminlanganlik darajasidan bilan birgalikda aholiga anblator-poliklinikalar soni va aholi jon boshi to'g'ri kelish ko'rsatkichi ham muhim hisoblanadi.

Respublika hududida Anblator-poliklinikalar soni 6031 tani tashkil etadi va bitta anblator-poliklinikaga 5730.2 nafar aholi to'g'ri keladi(1-jadval). Anblator-poliklinikalarga o'rtacha aholi soni hududlarda turlicha. Surxandaryo viloyatida bir anblator-poliklinikaga 9643,2 ta aholi to'g'ri kelib bu ko'rsatkich bo'yicha eng yuqori darajaga ega ekanligini ko'rish mumkin. Namangan, Jizzax va Farg'ona viloyatlarida ham bu ko'rsatkich yuqori ekanligi bilan ajralib turadi. Ushbu viloyatlarda aholi salomatligini saqlash birmuncha qiyinchilik keltirib chiqaradi. Anblator-

poliklinikalarga aholining bir o‘ringa to‘g‘ri kelish ko‘rsatkichi eng past ko‘rsatkichi bu Toshkent shahariga to‘g‘ri kelib 2925.5 nafaar aholi bir poliklinikaga to‘g‘ri keladi. Toshkent shaharida bunday bo‘lishiga asosiy sabab shaharda anblator-poliklinikalar sonining boshqa hududlarga qaraganda birmuncha ko‘p ekanligi bilan baxolanadi.

Aholiga xizmat ko‘rsatishda eng asosiy vazifani tibbiyot va o‘rta tibbiyot hodimlarini tashkil etadi. Bugungi kunda respublikada 91 mingdan ortiq tibbiyot hodimlari tashkil etmoqda. Respublikada bu ko‘rsatkich bitta tibbiyot hodimiga 376 nafar aholi to‘g‘ri keladi. Aholi jon boshiga to‘g‘ri kelish ko‘rsatkichi bu borasida hududlar bilan farqlanadi. Bir tibbiyot hodimiga to‘g‘ri kelish ko‘rsatkichi bo‘yicha Surxandaryo viloyati 603 kishi, Jizzax viloyatida 585 kishi, Qashqadaryo viloyatiga esa 560 kishi to‘g‘ri keladi va bu holat tibbiy hodimlarga bo‘lgan ehtiyoj yuqori ekanligini ko‘rish mumkin (2-jadval).

## 2-jadval

*Tibbiyot va o‘rta taibbiyot hodimlariga to‘g‘ri kelgan aholi soni soni (2021-yil holatiga)*

Hududlar	Jami aholi soni	Shifokorllar soni	Bir shifokorga to‘g‘ri keluvchi o‘rtacha aholi soni	O‘rta tibbiyot hodimlari soni	Bir nafar o‘rta tibbiyot hodimiga to‘g‘ri kelgan o‘rtacha aholi soni
O‘zbekiston Respublikasi	34558900	91912,0	376	356700	96,9
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	1923700	4785,3	402	18100	106,3
Andijon viloyati	3188100	7682,2	415	28800	110,7
Buxoro viloyati	1947100	6009,6	324	23700	82,2
Jizzax viloyati	1410500	2411,1	585	12100	116,6
Qashqadaryo viloyati	3335400	5956,1	560	34000	98,1
Navoiy viloyati	1013600	2955,1	343	13500	75,1
Namangan viloyati	2867500	5568,0	515	29100	98,5
Samarqand	3947700	9354,7	422	29700	132,9



viloyati					
Surxondaryo viloyati	2680800	4445,8	603	22100	121,3
Sirdaryo viloyati	860900	1764,1	488	12600	68,3
Toshkent viloyati	2975900	6123,3	486	31400	94,8
Farg'ona viloyati	3820000	8470,1	451	44300	86,2
Xorazm viloyati	1893300	5230,1	362	15900	119,1
Toshkent shahri	2694400	21905,7	123	37900	71,1

## **XULOSA**

Tibbiyot xodimlarni taminlanish darajasi bo'yicha Toshkent shaharida bir shifokorga 123 aholi to'g'ri kelmoqda buning sababi esa poytaxtda tibbiyot xodimlarning to'planganligidir. O'rta tibbiyot xodimlari bilan taminlanish darajasi respublika darajasida 96.9 aholi bir o'rta tibbiyot xodimi to'g'ri keladi. Bu borada Samarqand viloyati 132.9 kishi, Xorazim viloyati 119.1 kishi va 116.6 nafar bilan Jizzax viloyati respublika ko'rsatkichidan yuqori turadi. Aholiga xizmat ko'rsatish borasida shuni xulosa qilish mumkinki aholiga tibbiy xizmat ko'rsatish borasida shifoxonalar sonining yetishmasligi aholi jon boshiga to'g'ri kelish ko'rsatkicharida hudularda tafovutlar mavjudli, tibbiyot xodimlariga bo'lgan ehtiyojni yuqori ekanligini ko'rish mumkin.

## **REFERENCES**

1. Komilova N.Q., Ravshanov A, Muhammedova N, Tibbiyot geografiyasi va global salomatlik. –Toshkent: Mumtoz so'z, 2019-10 b.
2. Komilova N.Q, Tibbiyot geografiyasining nazariy va amaliy masalalari. – Toshkent: Sharq, 2016-5 b.
3. Yusupov X.B O'zbekiston shahar hudularida tibbiy xizmat ko'rsatish va aholi salomatligi. "O'zbekistonda turizm va rekratsiyani rivojlantirishning deografik muammolari va imkoniyatlari" Respublika ilmiy-amaliy konfirensiya materiallari. Qarshi 2021 279-281 bet.
4. Yusupov X.B O'zbekistonda aholi salomatlik darajasi. "Yangilanayotgan O'zbekistonda geografiya: fan, ta'lim va inovatsiya" Respublika miqiyosidagi ilmiy-amaliy konfirensiya materiallari. Toshkent 2021-yil 235 bet.
5. Stat.uz internet sayti.